

SHARQ AXLOQIY QADRIYATLARINING ZAMONAVIY YOSHLAR TARBIYASIDAGI ROLI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-6-10>

Ismoil Saifnazarov

TDIU professori, falsafa fanlari doktori

Annotatsiya: *Sharq aholisi qadimdan axloqiy qadriyatlarni hayot mezoni sifatida qadrlab kelgan. Mazkur qadriyatlar sirtdan qaraganda ajdodlar merosi, ko'ha urf-odat yoki qadimiy an'analar sifatida qabul qilinsa-da, zamonaviy yoshlar tarbiyasida ularning ahamiyati beqiyosdir. Sharq axloqiy qadriyatlari inson ongiga bolalikdan singdirilib, hayotda o'z o'rnini topish, chinakam inson bo'lib shakllanish, kelajak uchun to'g'ri yo'l tanlash, boshqalarga yordamchi va mehribon bo'la olish kabi jihatlarni tarbiyalaydi. Ota-onaning bolasiga bo'lgan mehr-muhabbati, otaliq va onalik burchini halol ado etishi, oilada kichik va kattalarga xos hurmat va ixlos, bir so'z bilan aytganda, insoniyat jamiyati uchun ijobiy fazilatlarning barchasi Sharq axloqiy qadriyatlaridan ildiz oladi.*

Kalit so'zlar: *Sharq qadriyatlari, axloq, yoshlar tarbiyasi, oilaviy tarbiya, halollik, Vatanga sadoqat, do'stlik, sadoqat, mehnatsevarlik, xalq og'zaki ijodi, ma'naviyat, jamiyat, barkamol avlod, ta'lim va tarbiya.*

Sharq axloqiy qadriyatlari asrlar davomida xalqimiz ma'naviy hayotida, oila va jamiyat taraqqiyotida mustahkam poydevor sifatida o'z o'rniga ega bo'lib kelmoqda. Bu qadriyatlar inson kamoloti, or-nomus, halollik, mehr-oqibat, ota-ona va ustozga hurmat, Vatanga sadoqat kabi yuksak fazilatlarni o'z ichiga oladi. Har bir avlod uchun ushbu axloqiy tamoyillar yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalash, ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda ularni kundalik hayotda mustahkamlash, yoshlarni sog'lom, yuksak tafakkurli, jamiyatga foydali shaxs sifatida yetishtirishda beqiyos ahamiyatga ega. Bugungi global axborot makoni, turli g'oyalar va zamonaviy texnologiyalar hayotga kirib kelayotgan bir davrda, yoshlarning ongini zaharlovchi, milliy qadriyatlarni so'ndirishga qaratilgan salbiy omillar kuchayib borayotgani bois, ularning tarbiyasida Sharq axloqiy qadriyatlarining ahamiyati yana-da ortib bormoqda. Yosh avlod ongiga mustahkam axloqiy mezonlarni singdirish, ularni har tomonlama yetuk va ma'naviy barkamol inson bo'lib voyaga yetishlariga zamin yaratadi. Ana shu qadriyatlar asosida tarbiyalangan yoshlar jamiyat taraqqiyoti, milliy va madaniy mustaqillik, davlat va xalq farovonligining asosiy tayanchiga aylanadi. Sharq axloqiy qadriyatlarini yoshlar tarbiyasiga chuqur singdirish, ularning mazmuni va zamonaviy ahamiyatini tahlil qilish, taraqqiyot va ma'naviyat yo'lida to'g'ri yo'ldan borishga xizmat qiladigan mezonlarni belgilab olish bugun har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Negaki, tarbiya va bilim maskanlarida, oilada va keng jamoatchilik hayotida ana shu qadriyatlarning kuchli namoyon bo'lishi barcha uchun baraka va taraqqiyot manbai bo'lib xizmat qiladi [1].

Sharq xalqlarida oilaning tarbiya institut sifatidagi o‘rni nihoyatda muhim hisoblanadi. Har bir bola ongiga dastlabki etik me‘yorlar aynan oila muhitida singdiriladi. Ota va ona nafaqat mulk egasi yoki bolaga moddiy resurs tashkil etuvchilar, balki avlodga o‘z asriy tajribasini ongli tarzda yetkazadigan, ma‘naviy ko‘makchi hamdir. Uyda kechadigan muloqot, ertak aytish, birga vaqt o‘tkazish, bayram va udumlarni ado etish, farzandlarning kundalik qilmishlarini muhokama qilish orqali bolalarda haqiqiy axloqiy fazilatlar shakllanadi. Shu boisdan, zamonaviy yoshlar tarbiyasida oilaning axloqiy muhiti asosiy omillardan biri bo‘lib qolmoqda. Sharq axloqiy qadriyatlarida yetuk insonni shakllantiruvchi omillardan biri – kattalarga hurmat, oilada va keng jamoada o‘zaro hurmatning ustuvorligi, tinchlik va totuvlikni saqlashga intilishdir. Oila va jamoada shakllangan bunday hurmat yoshlarning hayotga, atrofdagilarga, o‘zidan kichiklarga va kattalarga nisbatan hurmat, g‘amxo‘rlik, hamjihatlik va hamfikrlik ruhini singdiradi. Masalan, Sharq xalqlari orasida “kichikni izzat qil, kattani hurmat qil” degan naqlar keng tarqalgan. Bu orqali yoshlarni jamiyatga moslashishga, o‘z o‘rnini topishga, adolatli bo‘lishga, ana shunday axloqiy qadriyatlarni o‘z hayot yo‘liga mezon qilib olishga undaydi.

Sharq axloqiy an‘analarida mehnatga hurmat, halollik va sabr-toqat, saxovat va kamtarlik, vijdonlilik va or-nomus, burchga sadoqat kabi fazilatlar alohida o‘rin tutadi. Bu qadriyatlar yoshlarni yuksak ma‘naviy dunyoga, o‘zligiga sodiqlik, jamiyatga foyda keltirish, o‘z or-nomusini asrab-avaylash, har qanday vaziyatda ham halol va pok yurak bilan yashashga da‘vat etadi. Bu fazilatlar, avvalo, oila a‘zolari, ota-ona, bobo va buvilar, avlod-avloddan kelayotgan urf-odatlar, qadimiy yodgorlik va rivoyatlar, xalq og‘zaki ijodi orqali yosh avlod ongiga singdiriladi. Sharq axloqiy qadriyatlarining o‘rganilishi, ularning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati va zamonaviy jamiyatda qo‘llanishi, hozirgi vaqtda alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bugungi kunda yoshlar ma‘naviyatiga salbiy ta‘sir o‘tkazuvchi global omillar va zamonaviy texnologiyalar, internet hamda chet el madaniyatining kirib kelishi kuchaymoqda. Bu esa yoshlarning ruhiy holatini, dunyoqarashini, ijtimoiy va axloqiy pozitsiyasini o‘zgartiruvchi ko‘plab tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Shunday sharoitda o‘z milliy, an‘anaviy, axloqiy qadriyatlarini asrash, uni yangi avlod ongiga chuqur singdirish har bir ota-ona, ustoz va keng jamoatchilikning oldida muqaddas vazifadir [2].

Zamonaviy jamiyatda yosh avlodni axloqan sog‘lom va barkamol inson sifatida shakllantirishda Sharqona axloqiy qadriyatlar muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu qadriyatlar o‘zining qadimiy ildizlari bilan birga zamonaviy mazmun kasb etib, inson hayotida amaliy tarzda namoyon bo‘lish imkonini beradi. Shaxs tarbiyasi, avvalo, oilada boshlanadi va keyinchalik maktab, litsey, kollej hamda oliy ta‘lim muassasalarida davom etadi, bu jarayonda u mazkur qadriyatlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirib boradi. Inson o‘z faoliyati, so‘zi va niyatida milliy hamda diniy an‘analar, Sharq axloqiy me‘yorlariga tayangan holda hayot yo‘lini belgilaydi. Yoshlar tarbiyasida ustozlar, mahalla, jamoa va yaqin muhitning o‘rni beqiyosdir. Ustoz nafaqat bilim beradi, balki o‘z shaxsiy namunasida halollik, fidoyilik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi fazilatlarni singdiradi. Mahalla va jamoa esa

yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi, ularga jamiyatda munosib o‘rin egallash, yuksak or-nomus va g‘urur bilan yashash ko‘nikmalarini shakllantirishda yordam beradi.

Sharq axloqiy qadriyatlari yoshlarni oilalarga sadoqat, Vatanga muhabbat, hamjihatlik, bardavomlik, do‘stlik, mehnatsevarlik kabi yuksak insoniy fazilatlarga ongli tarzda ega bo‘lishga undaydi. Ana shu qadriyatlarni mustahkamlash uchun avvalo xalq og‘zaki ijodi, maqollar, ertak va dostonlar, jumladan, o‘tmish buyuk sohibqironlari, mashhur olim va ustozlarimizning ibratli hayotidan namunalar olib, yosh avlodga yetkazish zarur. Ularning hayot yo‘llari, orzu-umidlari, fazilatlari, ma‘naviy jasorati bugungi yoshlarning ham o‘z mustaqil hayotida ishonchli tayanch bo‘lib qoladi. Ijtimoiy hamda iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi natijasida bugungi yoshlar dunyoqarashida ham muayyan o‘zgarishlar yuz bermoqda. Shunday vaziyatda, milliy va Sharq axloqiy qadriyatlarini yangi avlod ongiga yetkazishda zamonaviy pedagogik tamoyillar, innovatsion dars usullari, tarbiya va o‘qitishda zamonaviy va an‘anaviy tamoyillardan uyg‘unlikda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Bugungi yoshlar o‘z hayot yo‘llarini belgilash, jamiyatda o‘zinikini topish, Vatan manfaati uchun xizmat qilish, zamonaviy taraqqiyotdan orqada qolmay, zamonga mos va kelajakka ishonch bilan yo‘l olish uchun bugungi kunda Sharq axloqiy qadriyatlariga tayanishga ehtiyoj sezmoqda. Chunki axloqiy qadriyatlar har bir avlod ongida insonlik fazilatlari, or-nomus, mas‘uliyat, yurtga va xalqga sadoqat, sabr-toqat, halollik kabi tub mezonlarni mustahkamlab boradi. Yoshlarning ijtimoiy-ma‘naviy jihatdan o‘sishi, sog‘lom avlod shakllanishi uchun Sharq axloqi, o‘z ona tili, ajdodlarning milliy qadriyatlari, o‘ziga xos odat va urf-odatlarini beqiyos ahamiyatga ega. Zero, bu qadriyatlar azaldan nafaqat oila, balki jamiyat, davlat, butun insoniyat taraqqiyotining muhim tayanchi sifatida xizmat qiladi. Jamiyat hayotida yangilanish va taraqqiyot jarayonlari kuchayib borayotgan bir paytda, axloqiy qadriyatlarning rolini kuchaytirish, yoshlarni ijtimoiy hayotga mas‘uliyat bilan tayyorlash, yuksak or-nomus, vatanparvarlik, mehr-oqibat, fidoyilik ruhida tarbiyalash zamon talabi bo‘lib qolmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, yangi maktab va oliygohlar ochilishi, ma‘naviyat va ma‘rifat sohasidagi chora-tadbirlar, yoshlar siyosati doirasidagi yangilanish va o‘zgarishlar ham aynan ana shu qadriyatlarning hayotga tatbiq etilishiga xizmat qilmoqda. Qadriyatlarni bolalikdan ongli ravishda singdirish orqali mustahkam axloqiy asosga, kuchli dunyoqarashga, mustaqil fikr va dunyoqarashga ega yoshlar avlodi yetishib chiqadi [4].

Sharq axloqiy qadriyatlarining zamonaviy yoshlar tarbiyasidagi rolini yanada kuchaytirish uchun har bir oila, mahalla, maktab va jamiyat a‘zolari o‘z burchlarini chuqur anglab yetishlari lozim. Qadriyatlarni doimiy targ‘ib qilish, yoshlarni do‘stlikka, vatanparvarlikka, mehnatga va halollikka o‘rgatishda so‘zli ta‘limni, shaxsiy namuna va ijtimoiy faoliyat bilan boyitib borish juda muhim. Axloqiy qadriyatlar so‘zda emas, amalda namunali bo‘lishi, yoshlar orzu-umidi, faoliyati, hayotiy maqsadiga aylanishi kerak. Yoshlarning or-nomusi, burch, mas‘uliyat, halollik, sadoqat, sabr-toqat kabi fazilatlar asosida tarbiyalanishi, ularda baxtli hayot, mustaqil fikr va bardavom sa‘y-harakatlarga asos bo‘ladi. Bu yurtimiz kelajagining ishonchli va

bardavom bo‘lishi uchun mustahkam kafolat hisoblanadi. Shunday ekan, Sharq axloqiy qadriyatlarini yoshlar tarbiyasiga chuqur singdirish, ularni zamon talabiga mos holda rivojlantirish, jamiyat taraqqiyotining asosi bo‘ladi [5].

Sharq axloqiy qadriyatlari ming yillar davomida shakllangan, insonparvarlik, mehr-shafqat, hurmat, sadoqat, kamtarlik kabi fazilatlarni o‘zida mujassam etgan qadriyatlar tizimidir. Ushbu qadriyatlar nafaqat farovon jamiyat qurishda, balki yosh avlodni tarbiyalashda ham muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston va umuman sharq xalqlari tarixiga nazar solsak, bobokalomlarimiz asarlarida jamiyat ijtimoiy hayotining asosi bo‘lib xizmat qiluvchi qadriyatlar, yoshlarni pokiza inson qilib voyaga yetkazishga xizmat qilgan tarbiyaning muhim jihatlari ko‘rsatilgan.

Sharq axloqiy qadriyatlarining o‘ziga xosligi – har bir insonning o‘ziga, oilasiga, jamiyatga va Vatanga bo‘lgan mas‘uliyatini muntazam oshirib borishda, insonlarni ezgu ishlarga undovchi tamoyillarga asoslanganidir. Qadimdan ota-bobolarimiz yoshlarni hurmat, kattalarga itoat, kichiklarga g‘amxo‘rlik, or-nomusni asrash, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e‘tibor berishgan. Hozirgi kunda ham bu qadriyatlar zamonaviy yoshlar ongida shakllanishi hamda ularning hayotida mustahkam asos bo‘lib xizmat qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy globallashuv davrida chet el madaniyati, yangi axborot texnologiyalari yoshlar hayotiga chuqur kirib kelmoqda. Ammo bular orasida yoshlarni o‘z tarixiy-madaniy ildizlaridan uzilish, ma‘naviy bo‘shliq paydo bo‘lish xavfi ham mavjud. Shu sababli ta‘lim-tarbiya tizimida sharq axloqiy qadriyatlarini yoshlar ongiga singdirish, ularning tafakkurida mustahkamlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Yoshlar ongida mas‘uliyat, insonlarga nisbatan rahm-shafqat, halollik, sabr-bardoshlik, sabru-qanoat, vatanparvarlik kabi xususiyatlar to‘laligicha rivojlansa, jamiyatda sog‘lom muhit vujudga keladi, ijtimoiy ziddiyatlar kamayadi.

Sharq ziyolilari – Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Kaykovus va boshqalar o‘z asarlarida eng avvalo inson axloqini, tarbiya, odob, sabr, poklik, mehr-muruvvat bilan bog‘liq g‘oyalarni targ‘ib qilganlar. Ularning asarlari zamonaviy yoshlar uchun ham mo‘jaz hayot maktabi bo‘lib xizmat qila oladi. Yoshlarga ushbu qadriyatlarni chuqur anglatish, ular hayotida namuna ko‘rsata olish uchun oilada, ta‘lim muassasalarida hamisha ularga e‘tibor qaratilishi lozim. Ko‘pgina zamonaviy yoshlar o‘zligini anglash, jamiyatda munosib o‘rin topish, axloqan pok va ma‘naviy jihatdan yetuk bo‘lishga harakat qilmoqda. Bu borada ta‘lim dargohlarida olib borilayotgan yangicha maktablar, dars jarayonlarida milliy-ma‘naviy qadriyatlar asosida tarbiya berilishi, yoshlar uchun turli mafkuraviy, ma‘rifiy tadbirlar tashkil etilishi o‘z samarasini bermoqda. Oilada, mahallada, jamiyatda yoshlarning axloqiy holatini mustahkamlash, ularning barkamol inson bo‘lib ulg‘ayishida sharq qadriyatlarining roli beqiyosdir.

Yuqoridagi tahlil natijasida aytish mumkinki, sharq axloqiy qadriyatlari yoshlarning ma‘naviy dunyosini boyitadi, ularni chinakam inson, vatanparvar va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantiradi. Ana shu qadriyatlar ongimizda e‘zozlanib borar ekan, yangi avlod tarbiyasida yuksak natijalarga erishish mumkin. Mazkur qadriyatlarni singdirgan jamiyatda taraqqiyot, totuvlik va farovonlik albatta bo‘ladi.

Sharq axloqiy qadriyatlari yoshlar ongida ma'naviy mustahkamlik, Vatanga sadoqat, oilaga hurmat, jamiyatga foydali bo'lish, haqiqatparastlik, do'stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, sabr-toqat, fidokorlik, or-nomus, mas'uliyat tuyg'usi singari fazilatlarni shakllantiradi. Yosh avlod ongiga singdirilgan ushbu qadriyatlar ularni ma'naviy barkamol, salohiyatli, zamonaviy islohotlarga mos, hayotda faollik va liderlikka intiluvchi, o'z orzu-umidlari sari qat'iyat bilan harakat qiladigan shaxs sifatida yetishib chiqishiga xizmat qiladi. Qadriyatlarni asrash va rivojlantirish, ular asosida yoshlar hayotini qurish, jamiyat taraqqiyoti va barkamol inson tarbiyasining eng asosiy omillaridan biri bo'lib, doimiy e'tibor va o'zgarishlarga mos yondashuvni talab qiladi. Sog'lom va kuchli jamiyat qurilishi, taraqqiyot va yorqin kelajak uchun, eng avvalo, axloqiy qadriyatlar ongida, qalbidagi yoshlar yetishib chiqishi, yurtimiz kelajagining taraqqiyoti va bardavomligiga poydevor bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Haydarov A. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar. – Toshkent: Muharrir, 2008.
2. Hamdamova. Ma'naviyat asoslari (Barkamol avlodni tarbiya- lashda uzluksiz ta'limni insonparvarlashtirish texnologiyasi). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.
3. Xajiyeva M. Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-ma'rifiy qarashlarining tarbiyaviy ahamiyati. – Toshkent: Muharrir, 2012
4. Jumaboyev N.P. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid ma'naviy va axloqiy qarashlari // Oriental Art and Culture. – 2021. – №2(4). – B.526-531.
5. Dolimov S., Dolimov U. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent, 2006.
6. Qo'shinova R.S. Ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda san'at va madaniyatni o'rni // Oriental Art and Culture. – 2023. – №4(1). – B.750-753.